YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA ESTETIK TA’LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Shodiya Yoqubjonova G‘ayratovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda yuqori sinf o‘quvchilarida estetik tarbiya va ta’limni rivojlantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning shaxs kamolotidagi o‘rni, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida estetik did va tafakkurni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda san’at, adabiyot va madaniyatning integrativ ahamiyati asoslab beriladi.

Estetik tarbiya bu – o‘quvchilarga voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish handa to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish va hayotga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

Kalit so‘zlar: estetik tarbiya, estetik did, yuqori sinf o‘quvchilari, ijodiy tafakkur, pedagogik yondashuv, madaniyat, san’at, estetik ong, shaxs kamoloti.

Insoniyat go‘zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go‘zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismidir. Uning obyektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tarbiyani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta’minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo‘naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta’lim hisoblanadi.

Bugungi globallashuv davrida shaxsning har tomonlama rivojlanishi nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan, balki uning estetik dunyoqarashi, go‘zallikni anglash qobiliyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilari –hayotiy pozitsiyasi shakllanayotgan, mustaqil fikrlash bosqichiga kirib kelayotgan yoshlar qatlamida estetik tarbiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda estetik tarbiya o‘z navbatida bolalarga har tomonlama tarbiya berishning bir qismidir.

Estetik tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u o‘quvchining aqlini, ichki hissiyotlarini tarbiyalab qolmay, shu bilan bir qatorda uning xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. O‘quvchilarni go‘zallikka oshno qilish, ularda hayotiy muammolarni to‘g‘ri tushunish, oliyjanob his-tuyg‘ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi.

Yuqori sinf o‘quvchilarida go‘zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo‘lish, qayg‘usini birga baham ko‘rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi.

“Estetik tarbiya” tushunchasi bilan bir qatorda “badiiy tarbiya” tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u o‘quvchilarni badiiy tarbiyava san’at asarlari orqali tarbilaydi.

Estetik tarbiya – bu insonning borliqni go‘zallik mezonlari asosida idrok etishi, baholashi va yaratish qobiliyatini shakllantirish jarayonidir. U nafaqat san’atni tushunish, balki kundalik hayotda ham nafislik, uyg‘unlik va mazmunni anglashni o‘z ichiga oladi.

Badiiy tarbiya shaxsda san’at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san’atning ma’lum turlari bo‘yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go‘zallik kategoriyasi hisoblanadi. Uning ma’nosini o‘quvchilarda tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyligini ta’minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go‘zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- go‘zallik – bu kishining qalbi go‘zalligi;
- go‘zallik – bu kishining istarasi issiqligi;
- go‘zallik – bu kishining go‘zal xulq egasi bo‘lishi;

- go‘zallik – bu bamisoli daraxt, yaprog‘i – axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat.

Estetik tarbiya shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning vositalari o‘quvchilarning go‘zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san’at go‘zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda qo‘llaniluvchi omillar sanaladi.

Badiiy adabiyot estetik tarbiyada cheksiz imkoniyatlarga ega. U o‘quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o‘rgatadi. Olam va inson go‘zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan san’at asarlari insonlarni go‘zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. Aksincha, g‘oyaviy jihatdan saviyasi past asarlar o‘quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go‘zallikdan chalg‘itadi, go‘zallikni sevishga bo‘lgan intilishlarini susaytiradi, didini pasaytiradi.

Yuqori sinflardagi mazkur yosh davrida o‘quvchilarda abstrakt tafakkur rivojlanadi, ular san’at va madaniyat hodisalariga tanqidiy yondasha boshlaydilar. Bu bosqich quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- *mustaqil estetik baho berish qobiliyatining shakllanishi*
- *san’at asarlariga chuqurroq tahliliy yondashuv*
- *individual estetik didning rivojlanishi*
- *ijodiy o‘zini ifoda etishga ehtiyojning ortishi*

Shu bois, pedagog estetik tarbiyani tashkil etishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Yuqori sinf o‘quvchilarida estetik tarbiya va ta’limni rivojlantirish – bu kompleks, tizimli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Estetik tarbiya orqali o‘quvchilarda nafaqat go‘zallikni anglash, balki uni yaratishga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida estetik tarbiyani rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, integrativ yondashuvlar va kreativ metodlardan keng foydalanish zarur. Bu esa kelajak avlodning ma’naviy yetuk, estetik didga ega va ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nafosat tarbiyasi o‘quvchilarga borliqda mavjud bo‘lgan barcha narsa va hodisalardan zavq olishni o‘rgatadi. Insonda tashqi va ichki go‘zallikni shakllantiradi. Biz kelajakda yuqori sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berar ekanmiz, ularning har tomonlama yetuk shaxs bo‘lishida nafosat tarbiyasining o‘rni beqiyos ekanligini to‘la anglamog‘imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. To‘xtaxodjaeva M.X. Umumiy pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Haydarova O.Q. Yangi pedagogik texnologiyalarning tarbiyachi faoliyatida tutgan o‘rni. // Pedagogik mahorat, 2-son, 2002.
4. Bikbulatova Aynur Suvtanovna “JOURNAL OF CIENCEINNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI VOLUME 2, ISSUE 5, 2024. MAY
ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869